

Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 9-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' C H I R M A

29.04.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Z.T. Jo'rayevaning 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100-Buxgalteriya hisoboti va audit (tarmoqlar bo'yicha) kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun "Iqtisodiyot fanidan kurs ishi yozish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y. Farmanova (kengash kotibasi) - Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Z.T. Jo'rayevaning 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100-Buxgalteriya hisoboti va audit (tarmoqlar bo'yicha) kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun "Iqtisodiyot fanidan kurs ishi yozish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy ko'rsatmaga: BuxMTI, Menejment kafedrası mudiri, dotsent, i.f.n. Xayitov Sh.N. va Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası dotsent, i.f.n. S.U. Tadjiyevalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy ko'rsatma muhokamasi haqidagi Iqtisodiyot va turizm fakulteti (2022-yil 26-mart) va Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası (2022-yil 19-mart) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası katta o'qituvchisi Z.T. Jo'rayevaning 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100-Buxgalteriya hisoboti va audit (tarmoqlar bo'yicha) kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun "Iqtisodiyot fanidan kurs ishi yozish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi

R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

“SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

60310100–“Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo'yicha- kunduzgi, kechki) va
60410100 –Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha- sirtqi) ta'lim
yo`nalishi talabalari uchun

“IQTISODIYOT”

fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

Tuzuvchi: katta o'qituvchi Jo'rayeva Z.T.

Buxoro–2022 yil

UMUMIY QOIDALAR

Kurs ishi talabalarining dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo'lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to'g'risida aniq tassavurlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g'oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e'tibor berishlari lozim.

Ishni bajarish jarayonida talabalar kursga oid nazariy bilimlar, maxsus adabiyotlar, huquqiy-normativ aktlar, mavzuga oid yondashuvlardan xabardor ekanligini hamda tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini ko'rsatishadi.

Kurs ishi maqsadlari:

- Talabalarining "Iqtisodiyot" fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari jarayonida o'ttirgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda tizimlashtirish.
 - Kurs ishiga oid muammolarni echishda mustaqil ishlash hamda izlanish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish.
 - Talabalarining nazariy va amaliy bilimlari hamda bu bilimlarni dolzarb iqtisodiy muammolarni echishga tadbir qila olish qobiliyati darajasini aniqlash.
 - Kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi bitiruv malakaviy ishi va ilmiy ishlarini yozishda katta yordam beradi.
- Kurs ishi vazifalari:
- ✓ Tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslash.
 - ✓ Tanlangan mavzuga oid nazariy ma'lumotlar, texnik-normativ hujjatlashtirish, statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish.
 - ✓ Mavzuga oid muammoli vaziyatlarga o'z fikrini bildirib olish.

Buxoro Davlat Universiteti, "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi Z.T.Jo'rayeva. 60310100-"Iqtisodiyot" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) va 60410100 -Buxgalteriya hisobi va audit (Tarmoqlar bo'yicha) kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Iqtisodiyot" fanidan kurs ishi yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2022 yil. 22 bet.

Tuzuvchi:

Z.T.Jo'rayeva- BuxDU, "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Uslubiy ko'rsatmada umumiy qoidalar, kurs ishining mavzusini tanlash va uni bajarish muddatlari, kurs ishining tuzilmasi va mazmuni, kurs ishini rasmiylashtirish va baholash tartibi, mavzular, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan.

Taqrizchilar:

S.U.Tadjiyeva - BuxDU, "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n

SH.N.Hayitov- BuxMTI, "Menejment" kafedrasi mudiri i.f.n. dots

BuxDU "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasi yig'ilishida muhokama qilingan va tafsila etilgan (28-son, 19 mart 2022 yil)

BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti ilmiy kengashiga muhokama qilingan va tavsila etilgan (8-son, 26 mart 2022 yil)

BuxDU o'quv-metodik kengashida muhokama qilingan va tavsila etilgan

()

- ✓ Tanlangan mavzuni o'rganish va o'tkazilgan tahlillarga asosan xulosalar chiqarish hamda takliflarni shakllantirish.
- ✓ Talab qilingan me'yorlarga asosan kurs ishini rasmiylashtirish.

KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH MUDDATLARI

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni hamda Prezident asarlarini chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (1-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi va quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak: Tahlil qilinayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganishi, o'zining bilim darajasini kengaytirishi va uni kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashi uchun amaliyotga tadbir qila olish imkoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati (5-ilova) bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Iqtisodiyot» fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish yo'nalishning o'quv rejasiga muvofiq, 2-semestrda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Uni tayyorlashning asosiy muddatlari quyidagicha:

- Mavzu tanlash: 2-semestrning 20 martgacha (sirtqi guruhlar uchun- 5 - aprelgacha)
- Adabiyotlarni ko'rib chiqish, reja tuzish 5 aprelgacha (sirtqi guruhlar uchun- 10-aprelgacha)
- Ilmiy rahbar bilan rejanı tasdiqlash va ilmiy rahbar fikrlarini inobatga olib, matnning asosiy variantini tayyorlash: 1 maygacha (sirtqi guruhlar uchun-20 maygacha)

- Kurs ishini tayyorlab (kafedraning maxsus jurnalida ro'yxatga olinadi) kafedra professor-o'qituvchilariga taqrizga berish muddati: 3 maygacha (sirtqi guruhlar uchun- 25maygacha)

- Ijobiy taqriz yozilgan kurs ishlari himoyaga qo'yiladi. Kurs ishini himoya qilish muddati: 10-15 may (sirtqi guruhlar uchun- 30maygacha)

Himoya quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- ↓ ochiq himoya;
- ↓ individual himoya;
- ↓ kichik guruhda himoya.

Muallif ishning asosiy natijalari, xulosa va takliflari bildirilgan taqdimot asosida himoyani amalga oshiradi. Chiqish vaqti – 7 minut. Ishning samaradorligini va o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish maqsadida ko'rgazmali materiallardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

KURS ISHINING TUZILMASI VA MAZMUNI

Kurs ishi matnini yozish talabadan katta mas'uliyat talab qiladi va ish vaqtning asosiy qismini egallaydi. Uni yozishda talaba o'zining bilimi va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Rejadagi savollar mantiqan bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi, har bir keyingi savol o'zidan oldingi savolning mantiqan davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak.

Tanlangan mavzudan qat'iy nazar ishning tuzilmasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ Titul varag'i (1-bet) (2-ilovada namuna keltirilgan)
- ❖ Ilmiy rahbarning kurs ishiga taqriz blankasi (2-bet) (4-ilovaga qarang)
- ❖ Mundarija (3-bet) (3-ilova)
- ❖ Kirish (4-6 betlar)
- ❖ 1-bob. Mavzu yoki muammoni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari
- ❖ 1.1. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.2. birinchi bobning paragrafi

❖ 1.3. birinchi bobning paragrafi

❖ 1.4. birinchi bobning paragrafi (agar zarur hisoblangan)

❖ 2-bob. O'rganilayotgan mavzu yoki muammoning tahlili, yechimiga oid taklif va chora-tadbirlar

❖ 2.1. ikkinchi bobning paragrafi

❖ 2.2. ikkinchi bobning paragrafi

❖ 2.3. ikkinchi bobning paragrafi

❖ Xulosa

❖ Tavanch iboralar

❖ Ilovalar (agar mavjud bo'lsa)

❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kurs ishining kirish qismida mavzuni o'rganish va rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari ko'rib chiqiladi, joriy vaziyat tahlil qilinadi, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi, asosiy maqsad va vazifalar shakllantiriladi. Bundan tashqari kurs ishining ob'ekti, predmeti, tuzilmasi, izlanish olib boriladigan soha tahlil qilinadi. Kirish qismining hajmi kurs ishi umumiy hajmining 10% dan oshmasligi kerak.

Kurs ishining birinchi bobi odatda, o'rganilayotgan mavzuning nazariy jabhalarga bag'ishlanadi va qolgan materialni yoritishning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan jarayonning tabiati, mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rib chikiladi.

Ishni mavzuning ob'yekti va predmetini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kichik tarixiy sayohat uyushtirib, mavzuning o'rganilganligini aytib o'tish, savollarni ko'rib chiqish va, albatta, o'z nuqtai nazarini yoritish lozim. Bu bobda adabiyotlarga tavsif beriladi, konstepsiya shakllantiriladi, o'rganilayotgan mavzu tahlili uslubi asoslanadi. Adabiyotlarga tavsif berish jarayonida turli mualliflar fikrlarining o'xshash va farqli jihatlarini

tahlil qilinib, o'z nuqtai nazari asoslanishi kerak. Uslubiy qism axborot yig'ish, uni tahlil qilish va qayta ishlash usullari tavsifini nazarda tutadi. Har bir bob yangi sahifadan boshlab yozilishi kerak, undagi paragraflar esa tugagan joyidan 2 qator tashlab keyingisini yozish tavsiya etiladi.

Kurs ishining ikkinchi bobida birinchi bobda yoritilgan nazariy va uslubiy asoslarga tayangan holda shu mavzu bilan chegaralangan sohadagi ishlarning joriy ahvoli tahlil qilinadi. Buning uchun amaldagi normativ aktlar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar materiallari, ilmiy ishlar natijalari, statistik ma'lumotlar (ham davlat miqyosidagi, ham yakka korxonalar miqyosidagi) qo'llanilishi mumkin. Tahlillarga asos bo'lib hisoblanuvchi materiallar kerakli darajada to'liq va ishonarli bo'lishi kerak, qaysikim ularga asoslanib zahiralarni aniqlash va keyingi faoliyat davomida ishlatish mumkin bo'lsin. Bundan tashqari, talaba mavjud faktlarni sanab o'tish bilan cheklanmasdan, ularning afzallik va kamchiliklarini ham yoritishi kerak.

Tahlillar natijalariga asoslanib talaba takliflarni shakllantiradi. Takliflarni shakllantirish o'rganilayotgan mavzuga oid kamchiliklar va imkoniyatlarning to'liq va asoslangan yoritilishini nazarda tutadi.

Kurs ishining xulosasi – bu ish davomida topilgan ma'lumotlar sintezidir, ya'ni bunda olib borilgan izlanishlar natijasida qilingan xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinadi. Bundan tashqari asosiy xulosalar va izlanish natijalariga asoslanib takliflar bayon qilinadi. Xulosa hajmi kurs ishi hajmining 5-10%ini tashkil etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhlashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa, muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili va soni ko'rsatilishi zurur.

Tavanch iboralar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgandan so'ng joylashtiriladi. Unda kurs ishida yoritilgan terminlar, iboralar keltiriladi.

Ilovalarga jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, statistik ma'lumotlar, boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi hujjatlar joylashtirilishi mumkin. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanishi kerak. Har bir ilovada uning raqamini aks ettiradigan sarlavha bo'lishi kerak (Masalan: 1-ilova). Ilovalar joylashtirilgan sahifalar betlanadi, ammo kurs ishi hajmiga kirmaydi.

Ilovalar kurs ishining ko'rgazmaliligini oshiradi, unda aks ettirilgan hodisalar tabiati va o'zaro bog'liqligini hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishining umumiy hajmi (ilovalarsiz) A4 formatidagi 35 betdan 50 betgacha etib belgilangan..

Matnni quyidagi qoidalariga amal qilib yozish (pechatlash) kerak: bet chegarasidan matngacha- chap tomondan 20 mm, o'ng tomondan 10 mm, yuqorigi va pastgi chegaralardan 10 mm. Sahifa raqami pastki o'ng burchakka yoziladi. Abzaslar 10 mm bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishida qatorlar orasidagi interval 10 mm bo'lishi kerak. Qalin shrift faqatgina sarlavhalarda ishlatilishi mumkin. Kursiv shrift ishlatilishi mumkin emas. Kurs ishi lotin alifbosi harflarida yozish talab etiladi.

Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur, ya'ni muallif nutqi qo'shtirnoq ichida berilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi kerak.

KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darjasiga qarab tabaqalangan holda baholangan maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabaning kurs ishini 5 ballik tizim asosida baholanadi.

№	Belgilangan ball	Baholash mezonlari
1	“A”lo”- “5” baho	Rejadagi savollarning mazmuni ijodiy yondoshilgan holda yoritilgan bo'lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan bo'lsa va ish bo'yicha berilgan savollarga aniq va to'liq javob berib, o'zining fikrini erkin bayon etsa bunday tayorlangan ishlarga «a'lo» baho qo'yish mumkin.
2	“Yaxshi” “4” baho	Agar rejadagi 4-5 savolning 3-4 tasiga to'liq javob yozilgan bo'lib, bittasiga etarlicha javob berilmagan bo'lsa, himoyada talabaning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo'yish mumkin.
3	“Qoniqarli” “3” baho	Rejadagi 4-5 ta savolning bita yoki ikkitasining mazmuni yoritilib, qolgan savollarga javob berilmagan bo'lsa, to'g'ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko'chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yo'q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo'lsa, ko'rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabaning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs

4	“Qoniqarsiz” “2” baho	ishi «qoniqarsiz» baholanadi. Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanadi: - reja noto'g'ri va umuman qoniqarsiz tuzilgan bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa; - kurs ishi e'tiborsizlik bilan pala-parish bajarilsa; - javoblar asosan o'quv adabiyotlaridan ko'chirilgan bo'lsa; - foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lmasa; - foydalanilgan adabiyotlarga va ma'lumotlarga ilovalar berilmagan bo'lsa; - rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa: - kurs ishini talabning o'zi husni xati bilan bajarmagan bo'lsa.
---	--------------------------	--

“IQTISODIYOT” FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI

1. Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari.
2. Agrar munosabatlar va ularning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni.
3. Agrar sohaning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni.
4. Agrobiznes va uning bozor tizimidagi xususiyatlari.
5. Aksionerlik jamiyatlari va ularning iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni.
6. Aholi bandlegi muammosining iqtisodiy mohiyati.
7. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.
8. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari.
9. Bandlik va ishsizlik, ularning darajalari va turlari.
10. Bank tizimi - moliya tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida.
11. Birja - bozor infrastrukturasi asosiy bo'g'ini sifatida.
12. Bozor islohotlari mohiyati va o'tish davridagi o'ziga xos xususiyatlari.
13. Bozor munosabatlarini shakllantirishda infratuzilmaning roli.
14. Bozor iqtisodiyoti, uning shakllanishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
15. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning andozalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
16. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida taqchilik va uni bartaraf etish vositalari.
17. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri, uning xususiyatlari va davomiyligi.
18. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari.
19. Bozor infratuzilmasi, uning asosiy sohalari va unsurlari.
20. Bozor mexanizmi, uning tarkibiy qismlari va amal qilishi.
21. Bozorni segmentlashirish va uning asosiy mezonlari tahlili.
22. Bozorning iqtisodiy mazmuni, uning vazifalari va turlari.
23. Byudjet: uning shakllanishi va taqsimlanishining iqtisodiyotdagi ahamiyati.

24. Davlat byudjetining kamomadlik muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.
25. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari.
26. Davlatning moliyaviy siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
27. Davlatning pul- kredit va monetar siyosati.
28. Daromad: mohiyati, shakllanishi va taqsimlanishi.
29. Daromadlar tengsizligi vujudga kelishining ijtimoiy jihatlari, uning sabablari va oqibatlari.
30. Yer rentasi va uning turlari.
31. Jamg'arma va unga ta'sir etuvchi omillar.
32. Jamiyatning iqtisodiy potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari.
33. Jahon bozori va uning iqtisodiy mohiyati.
34. Jahon xo'jaligi taraqqiyotining hozirgi zamon xususiyatlari.
35. Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari.
36. Jahonning global iqtisodiy muammolari.
37. Ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi.
38. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish, uning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'rni.
39. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga bo'lgan turli xil yondoshuvlar.
40. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning andozalari.
41. Iqtisodiyot fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
42. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uning iqtisodiy muvozanatga ta'siri.
43. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati, shakllari va usullari.
44. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zarurligi.
45. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli.
46. Iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi.
47. Iqtisodiyotning siklligi to'g'risida turlicha nazariyalar.
48. Iqtisodiy o'sishning hozirgi zamon shakli va uning yangicha sifati.
49. Iqtisodiy jamg'arish mohiyati va manbalari.

50. Iqtisodiy inqirozlar, ularning turlari va namoyon bo'lish xususiyatlari.
51. Iqtisodiy kategoriyalar va ularning amal qilish mexanizmi.
52. Iqtisodiy qonunlar va ularning amal qilish mexanizmi.
53. Iqtisodiy muvozanatlikning mohiyati va unga erishish yo'llari.
54. Iqtisodiy raqobat mohiyati, uni amalga oshirish zarurati.
55. Iqtisodiy rivojlanish to'g'risidagi asosiy nazariyalar.
56. Iqtisodiy o'sish - ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida.
57. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari.
58. Iqtisodiy xarajatlar tarkibi, ularni kamaytirish yo'llari.
59. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, turlari va ularning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
60. Investitsiyaning mohiyati, manbalari va shakllari.
61. Inflyatsiya mohiyati, uni bartaraf etish imkoniyatlari.
62. Inflyatsiya, uning kelib chiqishi va oqibatlari.
63. Iste'mol va unga ta'sir etuvchi omillar.
64. Ish haqi: mohiyati, turlari va prinsiplari.
65. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida.
66. Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy mohiyati.
67. Ishlab chiqarish samaradorligi - korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida.
68. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari.
69. Iste'molchi xulqi nazariyasining mohiyati va taraqqiyoti.
70. Qiymat qonuni va uning vazifalari.
71. Qiymatning miqdori va unga ta'sir etuvchi omillar.
72. Qimmatbaho qog'ozlar bozorining o'ziga xos xususiyatlari.
73. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish - iqtisodiy erkinlikni ta'minlash omili sifatida.
74. Korxona foydasining taqsimlanishi va ishlatilishi.

75. Korxona xarajatlari, ularning tarkibi va turlari.
76. Kreditning mohiyati va moliya tizimidagi roli.
77. Makroiqtisodiyot, uning maqsadlari va vazifalari.
78. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tarkibi va mohiyati.
79. Makroiqtisodiy nisbatlar va unga ta'sir etuvchi omillar.
80. Marketing va uning asosiy vazifalari.
81. Meneyment - korxonani boshqarish san'ati sifatida.
82. Mehnat munosabatlari va ularning O'zbekistonda tartibga solinishi.
83. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish - rivojlanish omili sifatida.
84. Mehnat unumdorligi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
85. Milliy boylik: mohiyati, tarkibi va ko'paytirish yo'llari.
86. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
87. Moliyaviy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
88. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni O'zbekistonda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.
89. Mulkchilik munosabatlari-jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy vositalaridan biri sifatida.
90. Mulkchilikning shakllari va ularning amal qilishi.
91. Narx iqtisodiy kategoriya sifatida.
92. Natural va tovar xo'jaligi, ularning belgilari.
93. Xususiy lashtirish, uning zaruriyati va O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari.
94. Pul muomalasi qonunining iqtisodiy mohiyati.
95. Pul tizimi va uning evolyutsiyasi.
96. Pul to'g'risidagi turli xil nazariyalar va hozirgi zamon pulining tabiati.
97. Raqobat - bozor iqtisodiyotining harakatlaniruvchi kuchi sifatida.
98. Raqobatning ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari.
99. Raqobatning turli modellari narxning shakllanishi.
100. Reklama- korxona marketingning asosiy vositalaridan biri sifatida.

101. Soliqlar va ularning vazifalari.
102. Sug'urta: mohiyati, tarkibi va iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
103. Tadbirkorlik kapitali, uning harakat bosqichlari va aylanishi.
104. Tadbirkorlik faoliyati, uning sarf - xarajatlari va foydasi.
105. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy shakllari.
106. Taklifning iqtisodiy mazmuni va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
107. Talab va taklifning o'zaro bog'liqligi. Bozor muvozanati va uning turlari.
108. Talab- taklif muvozanati- farovonlik garovi.
109. Talabning iqtisodiy mazmuni va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
110. Tannarxning mohiyati va uni kamaytirishning korxona uchun ahamiyati.
111. Tijorat banklari va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
112. Transmilliy korporatsiyalar, ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
113. O'zbekistonda milliy pul tizimini mustahkamlash vazifalari.
114. O'zbekistonda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
115. O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiasining sifat jihatidan o'zgarib borishi.
116. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati.
117. O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.
118. O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari.
119. O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining shakllanishi va rivojlanishi.
120. O'zbekistonda moliya tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishlari.
121. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi.
122. O'zbekistonda xususiy lashtirish jarayonlarining bosqichlari va vazifalari.
123. O'zbekistonning jahon bozoriga kirib borish muammolari.
124. O'zbekistonning iqtisodiy resurs salohiyati va ulardan tejamli foydalanish yo'llari.

125. O'tish davri iqtisodiyoti nazariyasi.

126. Fan-texnika taraqqiyoti- iqtisodiy rivojlanish omili sifatida.

127. Fiskal siyosat, uning mohiyati va tashkiliy vositalari.

128. Foyda va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.

129. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida O'zbekistonning o'ri.

130. Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

131. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, turlari va ob'yektiv asoslari.

132. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning faoliyati.

133. Xalqaro kapital bozori va uning rivojlanish asoslari.

134. Xalqaro kredit va uning jahon iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli.

135. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning zarurligi.

136. Xalqaro savdo, uning turlari va tartibga solish mexanizmi.

137. Hissadorlik jamiyatlari va ularning tashkil etilishi.

138. Hozirgi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai sifatida.

139. Xususiy mulkchilikning mohiyati va O'zbekistonda uni rivojlantirish muammolari.

140. Yalpi ishchi kuchi va uning takror hosil etilishi.

141. Yalpi talab va yalpi taklif nisbatlari.

142. YaMM va YalM, ularni hisoblash usullari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI
KAFEDRASI

«IQTISODIYOT» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: _____

Bajardi: _____
(imzo) guruh talabasi _____
(ismi sharifi)

Kurs ishi himoya qilingan sana " " 2022 y.

Baho " " _____

Ilmiy rahbar: _____

(imzo) _____
(ismi sharifi)

Komissiya a'zolari: _____

(imzo) _____
(ismi sharifi)

(imzo) _____
(ismi sharifi)

Buxoro – 2022 yil

KURS ISHI MAVZUSI REJASINI TUZISH BO'YICHA NAMUNA

Mavzu: Inflyatsiya: mohiyati, uni bartaraf etish imkoniyatlari

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
1-bob. Inflyatsiya ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida	
1.1. Inflyatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida. Inflyatsiya sabablari.....	7
1.2. Inflyatsiya turlari.....	11
1.3. Inflyatsiyaning asosiy oqibatlari.....	15
2-bob. Inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi.	
2.1. Inflyatsiyaga qarshi kurashning tarixiy tajribasidan.....	19
2.2. Rivojlangan mamlakatlar ning Inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasidan.....	22
2.3. O'zbekistonda Inflyatsiyaga qarshi kurashning asosiy usullari.....	26
Xulosa.....	29
Tayanch iboralar.....	32
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	34
Ilovalar.....	33

ILMIY RAHBARNING KURS ISHIGA TAQRIZ BLANKASI

KURS ISHI UCHUN TAQRIZ

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI KAFEDRASI

“Iqtisodiyot” fani

Guruh.....	
Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....	
Kurs ishi mavzusi.....	
Kurs ishining tarkibi.....	
Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro'yxati.....	
.....	
.....	
Jadval va grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko'rsatgichi).....	
Kurs ishining ijobiy tomonlari.....	
.....	
Kurs ishining kamchiliklari.....	
.....	
Kurs ishiga qo'yilgan baho.....	
Kurs ishiga rahbarning ismi-sharifi va imzosi.....	

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Adabiyot	QR-kod
1. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics, 8th Edition. Gengage Learning, 8th edition. (January 1, 2017) ISBN-13: 978-1337091992	
2. Economics. (Irwin Economics) Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue, Sean M Flynn 21- edition. 2018	
3. Хажиев Б.Д., Мамбетжанов К.К. Экономическая теория Учебник. Т" IQTISODIYOT" 2019-552 стр.	
4. Xodiev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. «Iqtisodiyot nazariyasi». Darslik. - T.: «Barkamol fayz media», 2017 yil 783 b.	

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Макконнелл, Кемпбелл Р., Брю, Стэнли Л., Флинн, Шон Масаки. Экономика: принципы, проблемы и политика. 21 издание М. «Инфра», 2019. 1008 стр.
2. O'Imasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T. «Iqtisod - moliya», 2014. - 480 bet.
3. Xajiev B.D., Mamaraximov B.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: «Iqtisodiyot» 2019. - 548 bet
1. R. Glenn Hubbard, A. Patrick O'Brian. Essentials of Economics. 6th edition. Pearson. New York. 2019

2. John Sloman, Dean Garrat. Economics, Pearson. 10th edition. UK. 2018
5. Anderson, David A. (2019) Survey of Economics. New York: Worth. ISBN 978-1-14292-5956-9
6. Roger A. Arnold. Economics 13th Edition. (2018) ISBN-13: 978-1337617383

Axborot manbalari:

1. <https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>
2. www.tradingeconomics.com-экономические показатели
3. <https://www.hse.ru/data/2019/04/12/178004671/2%20>
4. <https://review.uz/ru/post/cifrovaya-ekonomika-v-centre-vnimaniya>
5. <http://www.pwc.ru/ru/technology/assets/global-industry-2016-rus.pdf>
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
6. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
7. www.ceep.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
8. www.ziyounet.uz
9. www.buxdu.uz